

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti rektori S.Safoyev

2026-yil “16” aprel

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida
Ilmiy etika va akademik halollik kengashi to'g'risidagi
NIZOMI**



*JIDU Akademik kengashi majlisida
muhokama qilingan va ma'qullangan.
2026-yil “16” aprel dagi 8 -sonli bayonnoma.*

TOSHKENT - 2026

MUNDARIJA

I-BOB. UMUMIY QOIDALAR	2
II-BOB. ASOSIY TUSHUNCHALAR	2
III-BOB. KENGASHNING ASOSIY VAZIFALARI	2
IV-BOB. KENGASHNING VAKOLATLARI	4
V-BOB. KENGASHNING TARKIBI.....	5
VI-BOB. ILMIY KENGASH EKSPERTIZASI.....	5
VII-BOB. ILMIY ETIKA RUXSATINI BERISH TARTIBI.....	5
VIII-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR	6

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida
Ilmiy etika va halollik kengashi to'g'risida
NIZOM**

I-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Nizom Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida (keyingi o'rinlarda — Universitet) Ilmiy etika va akademik halollik kengashining (keyingi o'rinlarda — Kengash) faoliyatini tartibga soladi, uning vakolatlari, funksiyalari va qaror qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Mazkur Nizom Universitetda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy loyihalar, ilmiy nashrlar, sotsiologik so'rovlar, intervyular, raqamli ma'lumotlar tahlili hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatga tatbiq etiladi.

1.3. Kengash o'z faoliyatini quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining ilmiy faoliyatga oid qonunchilik hujjatlari;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari;
- xalqaro ilmiy etika standartlari va akademik halollik tamoyillari;
- Universitetning Akademik halollik va ilmiy etika kodeksi;
- Universitetning ichki me'yoriy hujjatlari.

1.4. Kengash Universitetdagi ilmiy etika va akademik halollik masalalari bo'yicha mustaqil kollegial organ hisoblanadi.

1.5. Kengash o'z faoliyatida xolislik, mustaqillik, shaffoflik, akademik halollik va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga amal qiladi.

II-BOB. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

2.1. Akademik halollik – ilmiy tadqiqotlar, ta'lim jarayoni va ilmiy nashrlarni amalga oshirishda halollik, xolislik, mualliflik huquqiga hurmat va ilmiy axloq qoidalariga rioya etish tamoyili.

2.2. Ilmiy etika – ilmiy faoliyatni amalga oshirishda tadqiqotchilar tomonidan amal qilinishi lozim bo'lgan axloqiy, kasbiy va huquqiy normalar majmui.

2.3. Plagiat – boshqa shaxslarning ilmiy ishlari, g'oyalari, matnlari yoki natijalarini manbani ko'rsatmasdan o'z nomidan taqdim etish.

2.4. Ilmiy soxtalashtirish (falsifikatsiya) – ilmiy tadqiqot natijalarini ataylab buzish, noto'g'ri talqin qilish yoki sun'iy ravishda o'zgartirish.

2.5. Inson ishtirokidagi tadqiqot – sotsiologik so'rovlar, intervyular, kuzatuvlar yoki boshqa usullar orqali insonlar ishtirokida olib boriladigan ilmiy tadqiqot.

2.6. Etik ekspertiza – ilmiy tadqiqotlarning axloqiy, huquqiy va inson huquqlariga oid talablarga muvofiqligini baholash jarayoni.

2.7. Sun'iy intellektdan foydalanish – ilmiy tadqiqotlar jarayonida algoritmik tizimlar, ma'lumotlar tahlili vositalari va generativ texnologiyalarni qo'llash.

III-BOB. KENGASHNING ASOSIY VAZIFALARI

3.1. Ilmiy tadqiqotlarda inson ishtirokchilarining huquqlari, sha'ni va xavfsizligini himoya qilish.

3.2. Ilmiy tadqiqotlarning etik jihatdan maqbulligini baholash va ilmiy faoliyatda etik standartlarga rioya etilishini nazorat qilish;

3.3. Plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, noto'g'ri mualliflik va boshqa ilmiy qoidabuzarliklarning oldini olish.

3.4. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan ilmiy faoliyatda mas'uliyatli foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

3.5. Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy nashrlarning sifatini oshirishga qaratilgan etika talablarini joriy etish.

IV-BOB. KENGASHNING VAKOLATLARI

4.1. Inson ishtirokida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish va ularni etik ekspertizadan o'tkazish.

4.2. Siyosiy, ijtimoiy yoki xavfsizlik masalalariga oid nozik masalalarga oid tadqiqotlarni alohida tartibda ko'rib chiqish.

4.3. Ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt va raqamli ma'lumotlardan foydalanish holatlarini baholash.

4.4. Ilmiy etika qoidalariga zid holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish va tegishli xulosalar tayyorlash.

4.5. Akademik halollikni ta'minlash bo'yicha universitet rahbariyatiga taklif va tavsiyalar kiritish.

4.6. Qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish.

V-BOB. KENGASHNING TARKIBI

5.1. Kengash tarkibi Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

5.2. Kengash tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Kengash raisi;
- rais o'rinbosari;
- kotib;
- kamida 7 nafar a'zo.

5.3. Kengash a'zolari xalqaro munosabatlar, iqtisodiyot, huquq, ijtimoiy fanlar metodologiyasi hamda raqamli texnologiyalar sohalaridagi mutaxassislardan shakllantiriladi.

5.4. Kengash a'zolari 3 yil muddatga tayinlanadi va qayta tasdiqlanishi mumkin.

5.5. Kengash a'zosi manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan hollarda mazkur masalani ko'rib chiqishda ishtirok etmaydi.

VI-BOB. ILMIY ETIKA EKSPERTIZASI

6.1. To'liq etik ekspertiza – siyosiy yoki xavfsizlik masalalariga oid nozik masalalarga oid tadqiqotlar uchun.

6.2. Tezkor etik ekspertiza – standart so'rovlar va anonim intervyular uchun.

- minimal xavfdan yuqori xavf mavjud bo'lsa;
- himoyaga muhtoj ishtirokchilar jalb qilinsa;
- shaxsni aniqlash mumkin bo'lgan ma'lumotlar yig'ilsa;
- siyosiy, ijtimoiy yoki boshqa nozik mavzular ko'rib chiqilsa.

6.3. Ekspertizadan ozod etish inson ishtirok etmagan yoki ochiq ma'lumotlarga asoslangan tadqiqotlar uchun qo'llaniladi.

6.4. Tadqiqot turini aniqlash dastlab kotibiyat tomonidan amalga oshiriladi.

VII-BOB. ILMIY ETIKA RUXSATINI BERISH TARTIBI

7.1. Tadqiqotchi Kengashga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ilmiy loyiha tavsifi;
- ishtirokchilar tavsifi;
- so'rovnoma yoki intervyu savollari;
- ishtirokchilarning rozilik shakli;
- ma'lumotlarni himoya qilish rejasi;
- ehtimoliy xavf va foydalar tavsifi;
- audio/video yozuv bo'lsa, bu haqdagi ma'lumot;
- himoyaga muhtoj ishtirokchilar bo'lsa, ularni himoya qilish choralari;
- sun'iy intellektdan foydalanish tavsifi (agar mavjud bo'lsa).

7.2. Kengash kotibiyati taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki ko'rib chiqadi va ularni Kengash muhokamasiga kiritadi.

7.3. Kengash majlisi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

7.4. Qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

7.5. Qaror yozma shaklda rasmiylashtiriladi va asoslari ko'rsatiladi.

7.6. Arizalar odatda 15 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

7.7. Kengash qarori quyidagi shakllarda qabul qilinadi:

- tasdiqlash;
- tuzatishlar bilan tasdiqlash;
- rad etish;
- qayta ko'rib chiqish uchun qaytarish.

VIII-BOB. TASDIQLANGAN TADQIQOTLAR USTIDAN NAZORAT

- 8.1.** Tasdiqlangan tadqiqotlar amalga oshirilishi davomida monitoring qilinishi mumkin.
- 8.2.** Tadqiqotchi muhim o'zgarishlarni oldindan Kengashga taqdim etishi shart.
- 8.3.** Nojo'ya hodisalar yoki shikoyatlar haqida Kengash darhol xabardor qilinadi.
- 8.4.** Zarur hollarda Kengash ruxsatni to'xtatishi yoki bekor qilishi mumkin.

IX-BOB. AKADEMIK HALOLLIK MASALALARI

- 9.1.** Akademik halollik buzilishlari alohida tartibda ko'rib chiqiladi.
- 9.2.** Bu masalalar bo'yicha Kengash tarkibidan ishchi guruh tuzilishi mumkin.
- 9.3.** Tekshiruv jarayonida shaxsga tushuntirish berish huquqi ta'minlanadi.

X-BOB. AKADEMIK HALOLLIK BUZILISHLARINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

10.1. Tekshiruv boshlash asoslari

Tekshiruv rasmiy shikoyat, aniqlangan qoidabuzarlik holati yoki rahbariyat topshirig'iga asosan boshlanadi.

10.2. Tekshiruv tartibi

Tekshiruv quyidagi tartibda amalga oshiriladi: dastlabki ko'rib chiqish o'tkaziladi, dalillar yig'iladi, tomonlar tinglanadi hamda yakunida xulosa tayyorlanadi.

10.3. Muddatlar

Tekshiruv odatda 10–15 ish kuni ichida yakunlanadi.

XI-BOB. TOMONLARNING HUQUQLARI VA APPELYATSIYA TARTIBI

- 11.1.** Jarayon ishtirokchilari ma'lumot olish, tushuntirish berish, o'z pozitsiyasini himoya qilish hamda qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.
- 11.2.** Qaror ustidan protsedura buzilganligi, yangi dalillar mavjudligi yoki qarorning asossizligi holatlarida shikoyat qilinishi mumkin.

11.3. Shikoyat belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqiladi.

XII-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

12.1. Kengash qarorlari Universitetning barcha ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari hamda talabalari uchun majburiy hisoblanadi.

12.2. Inson ishtirokidagi ilmiy tadqiqotlar Kengashning etik ruxsatisiz boshlanishi mumkin emas.

12.3. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Universitetning ichki tartib-qoidalariga muvofiq choralar qo'llaniladi.

Mas'ul: T. Dadabaev

NAMUNA

1-SHAKL / ФОРМА 1

**Ilmiy etika bo'yicha ariza shakli/ Форма заявки на этическое рассмотрение
исследования**

1. Loyiha nomi / Название проекта

Bosh tadqiqotchi / Руководитель исследования

Fakultet yoki bo'lim / Факультет или подразделение

Elektron pochta va telefon / Контактный e-mail и телефон

Hammualiflar / Соисследователи

Moliyalashtirish manbai / Источник финансирования

Loyiha boshlanish va tugash sanasi / Дата начала и окончания проекта

2. Tadqiqot tavsifi / Описание исследования

Tadqiqot maqsadlari va metodologiyasi / Цели и методология исследования

Tadqiqot o'tkaziladigan joy / Место проведения исследования

Kutilayotgan natijalar / Ожидаемые результаты

3. Tadqiqot ishtirokchilari / Участники исследования

Inson ishtirok etganmi / Участвуют ли
люди : Ha \ Да Yo'q \ Нет

Ishtirokchilar toifasi / Категория участников

Talabalar Ekspertlar
 Davlat xizmatchilari Boshqa

Fuqarolar

Ishtirokchilar soni:

Jalb qilish usuli / Способ привлечения:

4. Ma'lumot yig'ish usullari / Методы сбора данных

So'rovнома/ Анкета Eksperiment \ Эксперимент
 Intervyu \ Интервью Kuzatuv / Наблюдение
 Fokus-guruh \ Фокус-группа

Ikkilamchi ma'lumotlar / Вторичные
данные Boshqa \ Другое

5. Ishtirokchilar roziligi/ Информированное согласие

Bildirish usuli / Способ получения

- Yozma\Письменно
 Og'zaki \ Устно
 Onlayn\Онлайн

Ishtirok ixtiyoriymi / Добровольность

- Ha\Да
 Yo'q\Нет

Ishtirokni to'xtatish huquqi / Возможность
отказаться

- Ha\Да
 Yo'q\Нет

Deklaratsiya/ Декларация:

Bosh tadqiqotchi imzosi/ Подпись руководителя:

Sana / Дата _____

*JIDUda ilmiy etika va akademik halollik
kengashi to'g'risidagi nizomga ilova*

NAMUNA

2-SHAKL\ФОРМА 2

Tadqiqot ishtirokchisi rozilik shakli / Информированное согласие участника

Tadqiqot nomi / Название исследования

Bosh tadqiqotchi / Руководитель

Aloqa ma'lumotlari / Контакты

Tadqiqot maqsadi / Цель исследования

Mazkur tadqiqot mavzusini o'rganishga qaratilgan. Ishtirok ixtiyoriy hisoblanadi. \ Цель данного исследования — изучить данную тему. Участие добровольное.

Maxfiylik / Конфиденциальность

Barcha ma'lumotlar maxfiy saqlanadi.\ Вся информация сохраняется в тайне.

Ishtirokni to'xtatish huquqi / Право отказаться

Ishtirokchi istalgan vaqtda ishtirokni to'xtatishi mumkin. \ Участник может отказаться от участия в любое время.

Ishtirokchi nomi/ Имя участника _____

Imzo / Подпись _____

Sana/ Дата _____

NAMUNA

3-SHAKL / FORMA 3

Ilmiy etika ekspertizasi baholash varag'i / Экспертный лист

Loyiha nomi / Название проекта

Bosh tadqiqotchi / Руководитель

Ariza raqami / Номер заявки

Ekspert / Рецензент

Baholash mezonlari / Критерии оценки

Mezon / Критерий

Qabul qilinadi / Приемлемо

Qabul qilinmaydi / Неприемлемо

Tuzatish/ Доработка

Tadqiqot maqsadining aniqligi / Четкость цели исследования

Metodologiya asoslanganligi / Актуальность методологии

Ishtirokchilarni himoya qilish / Защита участников

Rozilik tartibi / Процедура получения согласия

Ma'lumotlarni himoya qilish / Защита данных

Xavflarni baholash / Оценка рисков

Sun'iy intellektdan foydalanish / Использование искусственного интеллекта

Ekspert izohlari / Комментарии экспертов

Qaror / Решение

Tasdiqlash / Подтвердить

Rad etish / Отклонить

Tuzatish / Редактировать

Imzo / Подпись _____